



ITALY



ITALY

**MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN JADID MAKTABLARINING
TASHKIL ETILISHI****Azizov Botirjon Baxromjon o'g'li**Miroz Ulug'bek nomidagi Tarix fakulteti Tarix (Faoliyat va yo'nalishlar
bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich Magistranti

O'zbekiston Milliy Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830391>

Rossiya imperiyasining Turkistonni xom ashyo manbaiga aylantirganligi, xalqni qashshoqlik va jaholatga solganligi, umuman uning mustamlakachilik siyosati xalqni istibdod zulmiga qarshi milliy ozodlik kurashini boshlashga majbur qildi. Mana shunday tarixiy sharoitda o'lkada millat ravnaqini, ozodligi, erkinligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritishni o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar - jadidlar paydo bo'ldi. Ular bir tomondan imperiyaning qudratli xarbiy-siyosiy kuch ekanligini yaxshi bilganliklari, ikkinchi tomondan, xalqning milliy ongini oshirmay, o'zligini anglatmay turib, asosiy maqsadga- mustaqillikka erishib bo'lmasligini yaxshi tushunganliklari tufayli ozodlik xarakatining birinchi bosqichi xalqni ma'rifatli qilishdan iborat bo'lishi lozim, deb hisobladilar va shundan kelib chiqib o'z faoliyatlarini maktab, matbuot, san'at orqali xalqni ma'rifatli qilishdan boshladilar.

Turkistondagi jadidchilik, ozodlik harakati sharq xalqlarining, Rossiya imperiyasidagi musulmon xalqlarining ozodlik harakati bilan uzviy bog'liq edi. Mustaqillik uchun kurashning birinchi bosqichini ma'rifatparvarlik yo'li bilan amalga oshirish g'oyasini Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo'lib qrim tatar xalqining farzandi Ismoil Gasprinskiy ilgari surgan edi. Bu harakatga Turkistonda jadidlarning ko'zga ko'ringan vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Abdulqodir Shakuriy kabilar yetakchilik qildilar¹.

Tabiiyki, Turkistonda mustamlakachilik ma'muriyati jadidchilik g'oyalarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslikka jon-jahdi bilan harakat qildi. Biroq, bu g'oya tarixiy taraqqiyot natijasi o'laroq yuzaga kelganligi, musulmon dunyosi ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli mahalliy rus amaldorlarining qarshiliklariga qaramay xalq o'rtasida keng tarqaldi va qo'llab-quvvatlandi. Tarixiy taraqqiyot, G'arb ta'siri maktablarda dastlab diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni yoshlarga o'rgatishni va jamiyat taraqqiyotini yangi, yuqoriroq bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda edi.

Arxiv hujjatlardagi ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston o'lkasida dastlabki jadid

¹ Алимova Д.А. Жадидчилик харакатининг ижтимоий-сиёсий моуияти ва жадидлар тафаккури // Жадидчилик: ислохот, янги ланиш, мустақиллик ва тараққиёт унун кураши/ Масъул мухаррир Д.А. Алимова. - Тошкент: Университет, 1999. Б. 36.



ITALY



ITALY

maktablari Farg'ona viloyatida ochilgan. O'quv yurtlari bosh inspektori arxiv fondida saqlanayotgan Farg'ona viloyati yangi usul maktablari ro'yxatidagi dalillar Qo'qon shahrida birinchi yangi usul maktablari XIX asrning 90-yillarida tashkil qilinganligidan dalolat beradi.

Qo'qondagi 10 ta yangi usul maktablaridan 4 tasi 1893 - 1900 yillarda bunyod etilgan. Qo'qondagi birinchi jadid maktabi 1893 yilda Mirayubboy mahallasida tashkil qilingan. Bu shahardagi eng yirik maktablardan biri bo'lgan. Undagi 100 o'quvchiga o'qituvchi Ahmadjon qori va uchta yordamchisi ta'lim bergan². 1899 yilda Xoli bobo mahallasidagi masjid qoshida yangi usul maktabi ochilgan. Unda 25 o'quvchi o'qigan va 1908 yilgacha tatar o'qituvchi, keyinchalik o'zbek Xo'jaxon Ahmadxo'ja o'qituvchilik qilgan. Ustam Banaul mahallasida 1899 yili ochilgan yangi usul maktabida 115 o'quvchi o'qigan va o'qituvchi Mahmudjonxon Muhammadov dars bergan. Beshqovoq mahallasi masjidi qoshida 1900 yilda ochilgan yangi usul maktabida 115 o'quvchi bo'lib, tatar Saloxitdin Mazitov ta'lim bergan. Bulardan tashqari Qo'qonning Daxma Dahan mahallasida 1901 yilda, Balcha soy mahallasida 1902 yilda, Bekbachcha mahallasida 1904 yilda yangi usul maktablari tashkil qilingan.

Yangi usul maktablarida o'qitishning ilgor usullari asosida dars o'tilganligi, bolalar o'qish va yozishni tezda o'rganib olishlari, ularda turli zamonaviy jihozlar, o'quv qurollari, shu jumladan, xarita, globus, cho't, parta, sinf doskasi bo'lganligi sababli aholi o'z bolalarini eski maktabdan ko'ra yangi usul maktabiga berishni ma'qul ko'rar edi. Bu holat eski maktab tarafdori bo'lgan ruhoniylarni jadid maktabiga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar jadid maktablari kitoblarini yod oldirmay xijjalab o'qitmoqda, natijada bolalarning diniy bilimlari sayoz bo'lib qolyapti va ular o'rgangan narsalarini tez unutib qo'ymoqdalar, deb da'vo qildilar.

Jadidlar bilan qadimchi ruhoniylar o'rtasida yangi usul maktablari, ularda o'qitiladigan dunyoviy fanlar masalasida keskin munozaralar bo'lgan. qadimchilar jadid maktablariga qarshi chiqib, ularda tarix va geografiya fanlarini o'qitilishini bid'at, gunoxdan iborat deb hisoblaganlar. M. Behbudiy «Tarix va jo'g'rofiya» nomli maqolasida³ qadimchilarning fikriga qarshi chiqib, bu fanlar jadid maktablarining ixtirosi emas, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo'lib kelganligini ta'kidlaydi.

Farg'ona viloyatida Qo'qondan keyin yangi usul maktablari nisbatan ko'p va avval ochilgan joylardan biri Andijon uezdi edi. Arxiv xujjatlaridan, ma'lum

² Казаков Т.К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века.: Автореф. дис. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 2001. С. 19.

³ Behbudiy M. Tarix va jurofiya // Oйна. 1914. - № 27. Б. 102-105.



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

bulishicha, Andijonda 1910 yilning o'zida 5ta jadid maktabi bo'lgan. Andijon shahridagi birinchi maktabga Zoidqassob mahallasida 1901 Abdug'afforkaljon Qo'rboshiev asos solgan. Maktabda 35 o'quvchi ta'lim olgan. Mulla Asadulla Azimboyxojiev o'qituvchilik qilgan. Baqaqurulloq mahallasidagi jadid maktabini eski maktab asosida 1904 yilda Zunun mingboshi Mulla qutlug'xojiev tashkil qilgan. Maktabda 50 nafar o'quvchilar bo'lib, ularga Alijon Xainov-O'zbekov dars bergan. Shahardagi uchinchi jadid maktabi Davaxon masjidi qoshidagi eski maktabni qayta qurish asosida 1908 yilda Qoraboyxoji Boqimatboev tomonidan tashkil kilingan. Bu maktab Andijondagi eng yirik maktab edi. Unda 100 nafar o'quvchi Mulla Shamsiddin Musaxojievdan ta'lim olgan. Andijon uezdining Hakan volostiga qarashli Xortum va Darxon qishloqlarida dastlabki jadid maktablari ochilgan.

Oktabr to'ntarishidan oldin Andijon shahridagi Beda bozoriga yaqin, Hovuz bo'yi mahallasida va Tuproqxona yo'lida Abdujabborboyning masjidiga joylashgan jadid maktablari ham mavjud edi. Ikkinchi maktabning muallimi Mulla Muhammad Rasul domla bo'lgan⁴.

M.G. Vahobovning «O'zbek sotsialistik millati» asarida O'zbekistonda birinchi yangi usul maktabi 1899 yili Andijonda, keyin boshqa ko'p shaharlarda ochilganligi va yil sayin ularning soni oshib borganligi qayd qilingan⁵.

Andijondagi Azim Qodirov ochgan jadid maktabida 1900 yilning mayida Otabek Qozi boshchiligidagi komissiya ota-onalar ishtirokida o'quvchilardan imtihon olgan. O'quvchilar o'z bilimlari bilan hammani xursand qildilar. Bu faqat Andijondagina emas, butun Turkiston madaniy hayotida ham muhim voqea bo'lgan edi. «Turkiston viloyati gazetisi» Tojidinbek Otabekovning bu imtihon haqidagi «Andijonda maktab. Usuli jadid va imtihon» sarlavxali maqolasini e'lon qildi. Maqolada bu voqea quyidagicha ta'riflangan edi: «Eski maktablar usuli bilan jadid maktabining farqi ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid va eski maktablarni bir joyga bormoq uchun otash aroba bilan piyoda odamga misol qilsak bo'ladi»⁶. Bu dalil shundan darak beradiki, Andijonda dastlabki jadid maktabi 1900 yildan oldin tashkil qilingan va 1910 yilda 5 ta emas, undan ko'p yangi usul maktablari bo'lgan. O'quv yurti ma'murlarining bu maktablarni to'la ro'yxatga olish imkoniyati bo'lmagan. Qo'qonda ham 12 ta emas, «Vaqt» gazetasining 1909 yil 18 avgust sonidagi ma'lumotiga ko'ra, 15ta yangi usul maktabi bo'lgan.

Farg'ona viloyatidan keyin jadid maktablari Samarqand viloyatida ochilgan.

⁴ Туркестоний Мусо. Улуг Туркестон фожияси. - Мадинаи Мунввара, 1979. Б. 157.

⁵ Вахобов М. Г. Узбек сotsialistik millati. - Toshkent, 1961. Б.117.

⁶ Отабеков Т. Андijонда мактаб. Усули жадиd ва имтихон // Туркестон вилояти газети. 1900, № 21.



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Samarqand viloyatida dastlabki jadid maktabi 1893 yili ochilgan⁷. N. Bobrovnikovning 1910 yil 19 avgustda O'rta Osiyo musulmon o'quv yurtlari to'g'risida yozgan axborotida ko'rsatilishicha, Samarqandda 4 ta yangi usul maktablari bo'lgan. Shulardan bittasi ikki bo'limdan: boshlang'ich (4 yil o'qitilgan) va urta (bu ham 4 yillik) va har bir bo'lim 4 sinfdan iborat bo'lgan. N. Bobrovnikovning yozishiga qaraganda, bu maktabning o'qituvchisi va mudiri mahalliy tojik bo'lgan, lekin axborotda uning familiyasi ko'rsatilmagan. Bizning fikrimizcha, bu yerda so'z Samarqandlik mashhur pedagog Abdulqodir Shakuriy (Shukurov, Abdushukurov ham deyiladi) tomonidan ochilgan maktab hakida ketmokda. N. Bobrovnikov maktabda darslar qozonlik muallimlar tomonidan 1906 yilda ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etilganligini ham aytib o'tgan. Samarqand viloyati xalq o'quv yurtlari inspektorining 1914 yil 9 yanvarda viloyat harbiy gubernatoriga yozgan axborotida A. Shakuriyning yangi usul maktabi 1903 yilda ochilganligi qayd qilingan. Bu maktab viloyatdagina emas butun Turkistonda ham namunaviy jadid maktabi edi. Maktabda dars ona tilida olib borilgan. O'quvchilar boshqa fanlar qatorida arifmetika, geografiya, tarix (Muxammad paygambar tarixi), arab, fors tillarini o'rganishgan, xohlovchilarga rus tili darsi ham o'tilgan, she'rlar, xikoyalarni yodlashgan. A. Shakuriy ham Mahmudxuja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi yangi usul maktablari uchun bir nechta darsliklar yozgan. Uning darsliklari «Zubdatul ash'or» 1907 yilda, «Savat» 1908 yilda, «Jome'ul hikoyat» 1911 yilda Samarqandda chop etilgan va yangi usul maktablarida o'qitilgan⁸. A. Shakuriy maktabida yuqoridagi darslardan tashkari Quron, tajvid, Munavvar qorining «Xavoyiji diniya» va boshqa kitoblar ham o'rganilgan. Maktabda 1913 yilda 117 nafar o'quvchi o'qigan. O'quvchilardan ochiq imtixonlar olingan va unda otanalardan tashqari viloyat harbiy gubernatori va o'quv yurtlari inspektori qatnashgan.

Sirdaryo viloyatida, jumladan, Toshkent shaxri va uezdida yangi usul maktablarini ochishga harakat 1901 yildan boshlangan edi. Bu harakatning tashabbuskori Munavvar Qori Abdurashidxonov bo'lgan⁹. 1910 yilda Toshkentning Shayxontaxur qismida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Eshonxo'ja Xonho'jaev, A'zamxon Abdurashidxonov (Munavvar Qorining ukasi), Abdulla Qori Mulla Sa'dulla, Nizomiddin Qori Xusainov, Yusuf Mullaxon Muhammadov yangi usul maktablari, Sebzor qismida Hasanxon xo'ja Xonxo'jaev,

⁷ Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX - начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 1998. С. 16.

⁸ Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX в.): Автореф.дис. ...канд. истор. наук. - Ташкент, 1995. С. 17.

⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи қитмоқ... Б. 260.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Sobirjon Raximov, Rustambek Yusufbek Xo'jaevning maktablari, Beshyog'och qismida Abdushoid Musamuhamedov, Abdullaxon Ibrohimxonov, Inoyatilla Qori Mirzajonovning yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatgan.

Munavvar Qori, Eshonxo'ja Xonxo'jaev va Sobirjon Rahimov (Rahimjonov) yangi usul maktablari Toshkentdagi mashxur va namunaviy maktablar hisoblangan. Eshonxo'ja Xonxo'jaev maktabida 120 o'quvchi ta'lim olgan. Maktabda uning o'zidan tashqari otasi Xonxo'ja Xo'jashorahim Xo'jaev o'qituvchilik qilgan. Ularga Umarqul Onorqulov yordamchi o'qituvchi b'lgan. Eshonxo'ja Toshkentdagi Shayxontoxur madrasasida ma'lumot olgan. Bu maktab 1909 yilda eski shaharning Shayxontoxur qismi quyi Devonbegi mahallasidagi quyi Devonbegi masjidida qoshida ochilgan.

Sobirjon Rahimov maktabini 1909 yilda o'zi ochgan va o'qituvchilik qilgan. Ma'lumotni u o'z otasidan olgan, eski maktabda o'qigan. Uning maktabida ham 120 nafarga yaqin o'quvchilar ta'lim olgan. Maktab Toshkentning Sebzor qismidagi Taxtapul mahallasida tashkil qilingan va faoliyat ko'rsatgan. Munavvar Qorining yangi usul maktabi Toshkent shahrining Shayxontohur qismidagi Tarnovboshi mahalasida, Mirdada Mirvafoev uyida tashkil qilingan. Maktabni Abdusamiq Qori Hidoyatboev 1908 yil 1 martda ta'sis qilgan va ikkinchi o'qituvchi sifatida dars ham bergan.

Maktabning Munavvar Qori nomi bilan atalishining sababi, u maktabning asosiy, birinchi o'qituvchisi bo'lgan. Bu maktab o'quv yurti inspektori va politsiya tashkilotlaridan ruxsat olmay ish boshlagan edi. Jadid maktabi ochilib, ruxsatsiz faoliyat ko'rsatayotganligidan politsiya xabar topadi. Maktab joylashgan uchastka politsiyasi 1908 yil 9 dekabrda Toshkentning eski shahar politsiyasi boshlig'iga quyidagi xabarni ma'lum qiladi: «Sizga xabar qilamanki, nomi tilga olingan musulmon o'quv yurti hech qanday ruxsatsiz shu yil 1 martda ochilgan. Maktab o'quvchilari ota-onalaridan yig'iladigan pul hisobidan (oyda o'rtacha 35 rubl yig'iladi) ta'minlanadi. Bu o'quv yurtini Shayxontohurning Xo'ja Rumnoy mahallasida yashovchi Abdusamiq Qori Hidoyatov moddiy tomondan ta'minlaydi, uning yordamchisi Darxon mahallasida yashovchi Munavvar Qori Abdurashidxonovdir. O'quvchilar soni 100 nafar musulmon o'g'il bolalaridan iborat. Hidoyatboevning so'ziga qaraganda maktabda o'qish eski va yangi usulda olib boriladi va o'quvchilar 4 ta bo'limda o'qitiladi»¹⁰. Ushbu hujjatda Munavvar Qori maktabi haqida umumiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, uning qachon tashkil bo'lganligi aniq ko'rsatilgan.

Sirdaryo viloyati xalq o'quv yurtlari inspektori N. Sayfiy Toshkentda yangi usul

¹⁰ «ЭП МДА» 1-ф., 27-р., 594-кит., 112-б.





ITALY



ITALY

maktabi ochilganligidan xabar topgandan keyin, 1908 yil 3 sentabrda uni tekshirgan. U o'z axborotida maktab xususiy mablag' hisobiga kun kechirayotganligi va moddiy jihatdan nisbatan yaxshi ekanligini ko'rsatib o'tadi. «Bu o'quv yurtining mudiri Munavvar Qori Abdurashidxonov maktabni ochishga ruxsat olmagan», deb yozgan o'z axborotida N. Sayfiy. Shuning uchun u Munavvar Qoriga o'quv yurtini ochish uchun Sirdaryo viloyati o'quv yurtlari direktoridan ruxsat olishni va maktabda rus tili sinfini ochishni taklif qiladi. O'quv yurti idorasi ruxsatisiz maktab ochish va unda o'quv ishlarini olib borish mumkin emas, degan ko'rsatmani olib, Munavvar Qori va ta'sis qiluvchi Abdusamik Qori Hidoyatboev 1908 yilda viloyat o'quv yurtiga maktabni ochishga ruxsat so'rab xat yozadilar. Ruxsat olib yangi usul maktabi ochish mumkinligidan xabar topgan boshqa ziyolilar ham 1909 - 1910 yillarda bu haqda iltimosnomalar yozdilar.

Jadid maktablarida dunyoviy fanlarni o'qitishga katta o'rin ajratilgan. To'rt yillik yangi usul maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odobnoma, arab, fors tillari o'qitilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yangi usul maktablari o'zbek ziyolilarining vatanparvarligi, xalqiga, yurtiga sodiqligi, fidokorligi natijasida ochilgan. Ularning ko'pchiligi o'rtahol kishilar, moddiy imkoniyatlari cheklangan bo'lishiga qaramay, vatani va xalqi uchun qayg'urib maktablar ochgan, yoshlarga dunyoviy bilimlarni o'rgatib, ularni ma'rifatli kilishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Алимova Д.А. Жадиdчилик уаракатининг ижтимоий-сиёсий моуияти ва жадиdлар тафаккури // Жадиdчилик: ислохот, янгилаиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш/ Масъул мухаррир Д.А. Алимova. - Тошкент: Университет, 1999. Б. 36.
2. Казаков Т.К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадиdское движение в начале ХХ века.: Автореф. дис. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 2001. С. 19.
3. Бехбудий М. Тарих ва жугрофия // Ойна. - 1914. - № 27. Б. 102-105.
4. Туркистоний Мусо. Улуг Туркистон фожиаси. - Мадинаи Мунввара, 1979. Б. 157.
5. Вахобов М. Г. Узбек социалистик миллати. - Тошкент, 1961. Б.117.
6. Отабеков Т. Андижонда мактаб. Усули жадиd ва имтихон // Туркистон вилояти газети. 1900, № 21.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

7. Салижанова Г.Ф. Учебно-просветительские очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX - начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 1998. С. 16.
8. Худайкулов А.М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX в.): Автореф.дис. ...канд. истор. наук. - Ташкент, 1995. С. 17.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... Б. 260.
10. ЎзР МДА, 1-ф., 27-р., 594-иш, 112-в.

